



FARG'ONA VILOYATI FARG'ONA TUMANI HOKIMINING QARORI

2025-yil 22-iyul

169-11-163-Q/25

Farg'ona tumani hokimligi

**O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2025-yil 31-martdagi
196-F-sonli va Farg'ona viloyat hokimining 2025-yil 7-apreldagi
148-11-0-F/25-sonli farmoyishlari ijrosini ta'minlash maqsadida qabul qilingan
viloyat hokimining 2025-yil 8-iyuldagagi 336-11-0-Q/25-sonli qarori to'g'risida**

Yer kodeksining 5-moddasi, "Mahalliy davlat hokimiysi to'g'risida"gi Qonunning 6-, 10-, 21¹-moddalari, Vazirlar Mahkamasining 2025-yil 31-martdagি 196-F-sonli va ijrosi yuzasidan qabul qilingan Farg'ona viloyat hokimining 2025-yil 7-apreldagi 148-11-0-F/25-sonli Farmoyishlari ijrosini ta'minlash maqsadida qabul qilingan viloyat hokimining 2025-yil 8-iyuldagagi 336-11-0-Q/25-sonli qarori ijrosini ta'minlash maqsadida tashkil etilgan, Farg'ona tumanida joylashgan masjidlarda yong'in va jamoat xavfsizlik talablariga rioya qilish, ko'chmas mulk obyektlariga tegishli me'yoriy hujjatlari normativ huquqiy hujjatlar holatini o'rganish bo'yicha Ishchi guruhining o'rganish yuzasidan xulosalarini ko'rib chiqib,

QAROR QILAMAN

1. Farg'ona viloyat hokimining 2025-yil 8-iyuldagagi 336-11-0-Q/25-sonli qarori rahbarlik va ijro uchun qabul qilinsin.

2. Ilovaga muvofiq, hatlov natijalariga binoan Farg'ona tumanida rasman faoliyat olib borayotgan masjidlar egaligidagi ko'chmas mulk obyektlarining miqdori qayd etilsin.

3. Mazkur, masjidlarga tegishli yer maydoni va bino-inshootlaridan foydalanish davrida yong'in va jamoat xavfsizligini ta'minlash maqsadida:

- mavjud bino-inshootlar shaharsozlik va qurilish normalariga javob beradigan tarzda ta'mirlanishi hamda yangitdan qurilgan obyektlarni kamchiliklarsiz foydalanishga qabul qilinishi yuzasidan vakolati doirasida mutasaddi shaxslarga ko'rsatma berilishi va ushbu

ko‘rsatmalarni bajarilishini nazoratini olib borish Farg‘ona tuman Qurilish va uy joy kommunal xo‘jaligi bo‘limi (X.Mirzayev)ga;

- hatlov natijasida aniqlangan, masjidlarning xonaqoh va tahoratxonalarini ichida joylashgan qozonxonalarini bino tashqarisiga ko‘chirish hamda tabiiy va suyultirilgan gazda ishlovchi qozonxonalarini elektr energiyasi orqali isitish tizimiga o‘tkazish bo‘yicha mas‘ullarga qat‘iy ko‘rsatmalar berish hamda ular tomonidan bajarilishini ta‘minlash tuman Favqulodda vaziyatlar bo‘limi (I.Xamdamov)ga;

- masjid bino-inshootlarini elektr ta‘minoti, isitish va ventilyatsiya tizimlari xavfsizlik normativ qoidalariga hamda yong‘in xavfsizligi talablariga to‘liq javob berishi ustidan muntazam ravishda nazorat o‘rnatish Farg‘ona tumani “Elektr ta‘minoti korxonasi” (M.To‘xtasinov)ga;

- masjidlarga tegishli ko‘chmas mulk obyektlarini amaldagi holatlariga qayta kadastr hujjatlarini rasmiylashtirish va belgilangan tartiblarga asoslangan holda obyektlarga bo‘lgan mulkiy huquqlarni davlat ro‘yhatiga kiritilishi tashkil etish vazifalari Davlat Kadastrlar palatasi Farg‘ona tuman bo‘limi (N.Otajonov)ga topshirilsin.

4. Tuman hokimining o‘rinbosarlari I.Toshpo‘latov, M.Qodirxonov:

- ishchi guruh tomonidan faoliyat olib borayotgan masjidlarda olib borilgan xatlov natijalariga ko‘ra aniqlangan kamchiliklarni, mutasaddi tashkilotlarning ko‘rsatmalariga binoan belgilangan muddatlarda bartaraf etish;

- masjid bino-inshootlarini elektr ta‘minoti, isitish va ventilyatsiya tizimlari xavfsizlik normativ qoidalariga hamda yong‘in xavfsizligi talablariga to‘liq javob berilishini chorasini ko‘rish;

- muntazam ravishda, masjidlardagi ommaviy-diniy tadbirlar davomida jamoat xavfsizligiga hamda amaldagi qonunchiliklarga amal qilinishini tashkil etishga va amalga oshirishga mas‘ul ekanliklari belgilab qo‘yilsin.

5. Mazkur qarorning bajarilishini nazorat qilish Farg‘ona tumani hokimining o‘rinbosarlari M.Qodirxonov va I.Toshpo‘latovlar zimmalariga yuklansin.

Farg‘ona tuman hokimi



Inomov X.T

Farg‘ona tumani hokimining
2025-yil 22-iyuldagি
169-11-163-Q/25-son qaroriga
1-ilova

Farg'ona tumani hokimining
2025-yil 22-iyuldag'i
169-11-163-Q/25-son qaroriga
2-ilova

**Farg'ona tumanida faoliyat olib borayotgan rasmiy masjidlar foydalanishidagi ko'chmas
mulk obyektlarini yalpi xatlovi natijalari yuzasidan
MA'LUMOT**

T/R	Tuman (shahar) nomi	Masjid nomi	Joylashgan manzili	Umumiy yer maydoni (gektar)	Bino- inshootlar o'rni (kv.m)
1.	Farg'ona tumani	"Abu Bakr Siddiq" jome masjidi	"Oqbilol" MFY, Yuksaklish ko'chasi 29-uy	0,11	828,67
2.	Farg'ona tumani	"Xuvaydo" jome masjidi	"Soybo'y" MFY, Xuvaydo ko'chasi 21-uy	0,65	2634
3.	Farg'ona tumani	"Shohimardon Xazrat Ali" jome masjidi	"Shoximardon" MFY, Porsin ko'chasi 65-uy	0,4	1675
4.	Farg'ona tumani	"Yunusxon Eshon" jome masjidi	"Qo'rg'ontepa" MFY, Oltinobod ko'chasi 164-uy	0,74	1160
5.	Farg'ona tumani	"To'raxon Xoji" jome masjidi	"Xonqiz" MFY, Xonqiz ko'chasi 53-uy	0,37	1700
6.	Farg'ona tumani	"Qalbi chin ota" jome masjidi	"Yuqori Gulshan" MFY Qovunchi kuchasi 60A-uy	0,14	1269,95
7.	Farg'ona tumani	"Xo'ja Abdullox" jome masjidi	"Bahor" MFY X.Zayniyev ko'chasi 190-uy	0,188	1302,15
8.	Farg'ona tumani	"Sirli" jome masjidi	"Markaz" MFY Mindon ko'chasi 165-uy	0,3213	2320
9.	Farg'ona tumani	"Ermatboy" jome masjidi	"Birdamlik" MFY, Farovonlik ko'chasi, 22-uy	0,2189	1526
10.	Farg'ona tumani	"Damko'l" jome masjidi	"Damkol" MFY Ko'ksuv ko'chasi 18-uy	0,36	2100
11.	Farg'ona tumani	Xo'ja Axmad Vale" ome' masjidi	"Xo'ja Axmad Vale" MFY, Chimyon ko'chasi 15-uy	0,442632	3569,01
12.	Farg'ona tumani	"Mulla Mirzajon" jome masjidi	"Kaptarxona" MFY, Kamolot ko'chasi 172-uy	0,23	1206,06
13.	Farg'ona tumani	"Xazrati Umar" jome masjidi	"Log'on" MFY Mirbobo ko'chasi 94 uy	0,3144	1213,38
14.	Farg'ona	"Yo'ldosh xoji" jome	"Navro'z" MFY Nurafshon	0,1321	872,44

	tumani	masjidi	ko‘chasi 55-uy		
15.	Farg‘ona tumani	“Oxuhxoji” masjidi	“Gulpiyon” MFY Gulpiyon ko‘chasi 121-uy	0,2	547,0